

Ilmiy - amaliy muzakoralar ishlab chiqarishning muhim omili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 avgustdagi PQ-4801-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Institutning bir gurux professor-o'qituvchilari jumladan: Raxmatov N.R, Muratov A.R., Sharipov Z.Sh., Matyakubov B.Sh., Ibraymov A., Ikramov N.M., Abdisamatov O.S., Otaxonov M. hamda "Suv xo'jaligi vazirligi" vakillari, ISMITI xodimlari Jizzax va Sirdaryo viloyatlariga 2021 yil 27-29 avgust kunlari tashrif buyurdilar hamda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. 2020 - 2021 yillarda amalga oshirilgan irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari bilan yaqindan tanishildi.



2. Irrigatsiya va melioratsiya ob'ektlarini qurish va rekonstruktsiya qilish jarayonida kuzatilgan kamchiliklar aniqlandi hamda ularni kelgusida bartaraf qilish kelishib olindi.

3. 2022 yilda amalga oshiriladigan irrigatsiya va melioratsiya ob'ektlarini qurish va rekonstruktsiya qilish, tiklash hamda kuzatuv ishlariga ilmiy tomondan xulosa berish bo'yicha mahalliy ekspluatatsiya tashkiloti mutaxassislari (texnik va texnologlar), loyiha tashkiloti mutaxassislari hamda "Sirdaryosuvqurilishinvest" DM va "Jizzaxsuvqurilishinvest" DM rahbarlari bilan tajriba almashilindi.



"Sirdaryosuvqurilishinvest" DM va "Jizzaxsuvqurilishinvest" DM rahbariyati 2020-2021 yillarda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha qisqacha hisobot berishdi. Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda ularni qiynayotgan masalalarga ham to'xtalib o'tishdi.

1. Irrigatsiya va melioratsiya ishlarini bajarishda ekskavator 1 soatda bajaradigan ishiga ajratilgan mablag' bo'yicha aniq metodik ko'rsatma yo'qligi.

2. Kanal va zovur tarmoqlarida injenerlik ishlarini amalga oshirishda muxofaza zonalari mavjud emasligi bo'lsa, yana bir tomondan injenerlik ishlarni amalga oshirishda kanal atrofiga ekilgan daraxtlarning ildiz tizimi katta muammolar tug'dirishini ta'kidlab o'tishdi. Bu bo'yicha vazirlik xodimlari yordam berishi kerakligi ta'kidlab o'tildi. Umuman olganda kelgusida irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruktsiya qilish, tiklash hamda kuzatuv ishlarini sifatli olib borish va ilmiy xulosa berishda asosiy tamoyillar yuzasidan Institut professor-o'qituvchilari tomonidan bajariladigan ishlar ko'lami yana bir bor kelishib olindi.

TIQXMMI matbuot xizmati